

QISHLAB CHIQQAN ASALARILARNI ALMASHTIRISH VA PARVARISHLASHNI O'RGANISH

Beshariq tumani 1-son texnikumi
Ta'lim ustalari G'aniyev Yusufkabr Olimovich va
Yaxshiyev Mirzohid Abdurahmonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishlab chiqqan asalarilarni almashtirish va parvarishlashni o'rganish haqida tushunchalarga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: Ari oilasining mahsuldor bo'lishi, bahorgi taftish va qishlash davrida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini o'rganish, qishlab chiqqan asalarilarni almashtirish va parvarishlashni o'rganish.

Ari oilasining mahsuldor bo'lishi o'tgan (oldingi) yili arilarning qishlashi uchun jamg'arilgan oziqqa kelasi yili ari oilasining asal to'plashi esa shu yili asosiy sharbat to'plash mavsumida qancha ko'p va sifatli oziq jamg'arilganligi- ga bog'liq bo'ladi



41-rasm. Asalarizorni qishki holati



42-rasm. Qishlash davomida arilarga asalli sharbat berilishi.

Yetarli va sifatli oziq jamg'arilganda ari oilalari muvaffaqiyatli qishlab chiqib, bahorda yaxshi rivojlanadi. Qishlashi uchun har bitta ari oilasiga O'rta Osiyoda 16-18 kg oziq qoldiriladi. Kuzda asal ozig'ining bir qismi shakar sharbatini bilan almashtiriladi. Bunda shakar sharbatini arilar qayta ishlab shakar asaliga aylantirib, inchalarga qo'yib ustini berkitishga ulgurishlari lozim. Qishlash davomida qora asal iste'mol qilgan arilar ichketar kasaliga uchrab, qishdan kuchsizlanib chiqadi, ayrim hollarda juda ko'p qora asal iste'mol qilgan ari oilasi butunlay qirilib ketadi. Shuning uchun tabiiy asal ozig'ini shakar sharbatini asaliga aylantirish ishlarini arilar hali harakatchan paytlarida bajarsalar, qishlash vaqtida kam harakatchan bo'lganlarida murakkab holatdagi shakarni parchalab, tanaga yengil so'riladigan oddiy shakarga aylantiradilar.

Bu oddiy shakar asalini ular uyaning ari kiradigan teshiklari qarshisidagi mumkatak romlardan ona arining kech kuzda qo'ygan oxirgi tuxumidan chiqqan lichinkalarning o'rniga qo'yadilar.

Yosh kichik oilalarda qoldiriladigan urchigan ona arilardan qishlash vaqtida ona arisi o'lgan oilalarni ona ari bilan ta'minlash hamda erta bahorda yosh oila ajratishda foydalaniladi. Arixonalarda hamma arilar soniga nisbatan 20-30% hisobida, ya'ni har 10 ta ari oilasiga 2-3 ta yosh ona arili kichik oila qishlashga tayyorlanadi. Ayrim hollarda yosh ona arili kichik ari oilalarini qishlashga qoldirib, erta bahorda qo'shimcha yordamchi ona ari ajratishda foydalaniladi. Qishlashga qoldiriladigan kichik oilaning ona arisi yozda yetishtiriladi va ari kiradigan teshikchalarini uyaning old tarafida qilinadi. 12 ta romli uyaning 2 ta chekka qismida 4 ta dan, o'rta qismiga esa 3 tadan mumkatak rom sig'adigan qilib 3 qismga bo'linadi. Agarda 20 ta romli yotoq uya bo'lsa, u holda uyani 4 ta mumkatak rom sig'adigan qilib teng 4 qismga bo'linadi va ajratilgan yosh kichik oila shu yerga o'tkaziladi. Ona arisi urchib, tuxum qo'ya boshlashi bilan ajratilgan kichik oila o'z kuchibilan rivojlanib, oziq to'playdi, kech kuzgacha rivojlanib, 3-4 ta to'liq romda arisibilan qishlaydi.

Bahorgi taftish vaqtida qishlash davrida yuzaga kelgan kamchiliklar bartaraf etilib, oilaning normal rivojlanishiga sharoit yaratib berilgandan keyin, 2-3 hafta davomida oilani tekshirib bezovta qilinmasa ham bo'laveradi. Keyingi bahorgi ari oilalarini parvarish qilish asosan ularing oziq miqdorini jamg'arishdan hamda oilaning ichki hajmini mumkatak romlar yordamida kengaytirishdan iborat bo'ladi.

Oilaga qachon oziq qo'shish yoki boqish kerakligini bilish uchun asalarichi erta bahorda gullab, sharbat ajratadigan o'simliklarning gullashini kuzatishi kerak. Buning uchun bitta o'rta kuchli ari oilasi taroziga qo'yiladi va arilarning sharbat keltirayotganini yoki uyadagi jamg'arilgan oziqni iste'mol qilayotganini bilish uchun taroziga qo'yib tekshirib turiladi. Agar tarozining ko'rsatishi o'zgarmasa, u holda arilar biroz sharbat keltirib o'zlari oziqlanayotgan bo'ladi. Mabodo tarozining ko'rsatkichi yuqori bo'lsa, u holda ari oilasi sharbat keltirib, oziq miqdorini jamg'arib ko'paytirayotgan bo'ladi. Bundan ikkala holda ham asalarichi ari oilasiga asal, shakar, sharbat bermaydi.

Ayrim paytlarda bahorda gullaydigan o'simliklar shunchalik ko'p sharbat beradiki, arilar hamma bo'sh inchalarga sharbat qo'yib, ona ari tuxum qo'yishiga joy ham qolmaydi. Bunday paytda ona ari tuxum qo'yishini tabiiy cheklab qo'yadi. Mana shunday holat yuzaga kelmasligi uchun tabiatdan kuchli sharbat kelish davrida ari uyalariga ichki hajmini kengaytirish maqsadida bo'sh mumkatak inchali romlar qo'yiladi. Kuchli ari oilalariga vaqtincha magazin qavatlar yoki qo'shimcha qavatlar qo'yib, uyaninghajmi kengaytiriladi (bu usuldan sharbat ajratuvchi o'simliklarga boy tuman va viloyatlarda foydalaniladi).


Tabiatdan sharbat kelmagan paytda arilar uyalaridagi tayyor jamg'arilgan oziqni iste'mol qilib, uning miqdorini vaqti-vaqti bilan oilaning ichki hajmi kengaytirilayotgan vaqtda to'lg'azib turiladi.

Kuchli ari oilalari quyosh chiqqan kunlari harorat biroz ko'tarilishi bilan, bunday oilalar qalin issiq tutadigan yostiqchalar bilan o'ralgan bo'lsa, yostiqchalari olinib, bir

oz yengillashtiriladi yoki butunlay olib tashlanadi hamda havo almashish teshikchalari kattaroq ochiladi.

Kuchsiz ari oilalari me'yordagi haroratda sovigani payqalganda, bunday oilalar qo'shimcha issiq tutadigan yostiqlar bilan isitiladi va havo almashish teshikchalari kichraytiriladi.

Qishlab chiqqan asalari oilasini bo'lish jarayoni:



Asosiy asal yig'ish vaqti tugashi bilan, ona ari tuxum qo'yishni ozaytiradi.

Asalarilar erkak arilarni uyadan haydab chiqaradi va arixonaga ari yelimini (propolis) keltirib, eshikchalarni toraytiradi. Asalarilar qishga tayyorgarlikni boshlaganligini bildiradi. Yosh asalarilar qishlovdan yaxshi chiqadi. Shuning uchun kuzda qurtchalarni ko'paytirish kerak. Buning uchun oilada yosh ona ari bo'lishi zarur. Tabiatda gulshirasi bo'lmaganida shakar sharbati beriladi. Asalari uyasi qisqartiriladi. Uyadan oz asalli ramkalarini olib, ko'p asalli ramkalar qoldiriladi. Oz asalli ramkalar diafragma orqasiga qo'yilsa, asalarilar asal tashib olib o'tadi. Qurtchalarni ko'paytirish uchun oziqani sentyabr oyidan boshlab oz-ozdan, ikki yuz grammdan berish kerak. Qishlovga asalarilar oziqani o'rtada joylashgan ramkalarga ozroq, chetdagi ramkalarga ko'proq qo'yadi. Qishlovga kamida oltita asalli ramkani to'la qoplagan asalarilar kirs, yaxshi bo'ladi. Bunday asalari oilasiga kamida o'n kg asal kerak. Qishlovga asal to'plash uchun, ularni o'simliklar bor joyga ko'chirish zarur. Ko'chirilmagan holatda asalarilar qishlovga yaramaydigan pad asal to'playdi. Shira beruvchi gullar bo'lmasa, oziqa uchun shakar sharbati berilsa qishlov yaxshi o'tadi. Mumkatakli ramkalardagi qurtchalarning ko'pchiligi yetilib chiqishi bilan, asalari uylarini qishlov uchun yig'ish kerak. Uyadagi asalarilar qancha ramkani qurshab olgan bo'lsa, qishlatish uchun shuncha ramka qoldiriladi. Uyada qoldirilgan asalliramkalarining usti yarim berkitilgan

bo'lib, har bir ramkada 1,5-2 kg asal bo'lishi shart. Sovuq va issiq ob-havo asalari oilasiga bir xil zarar ko'rsatadi. Havo 4 darajadan pasayganida, ularning yonidan ham o'rab isitish kerak. Harorat 4 darajadan yuqori bo'lsa, ustidagi to'shakchasi yetarli bo'ladi. Qishlovga uyalar yig'ilib bo'lganidan keyin, arixona eshikchalarini sichqon o'ta olmaydigan qilib toraytiriladi. Asalarilar o'tib yurishi uchun joy qoldiriladi. Arixonalarni sovuq shamol va qattiq sovuqlardan saqlash uchun to'silgan joylarga o'rnatish zarur. Qish davrida sog'lom asalarilar asalni uncha ko'p sarf qilmaydilar. Bahorga chiqish oldidan ona ari tuxum qo'ya boshlaydi, qurtchalar paydo bo'lishi bilan asal ishlatish ko'payib boradi. Bu davrda asalning ko'p qismi ari qurtchalarini o'stirish uchun, arixonani isitish uchun sarf qilinadi. Oziqa yetarli bo'lmasa, yarim kg asalni qog'ozga o'rab, uya ramkalar ustiga qo'yiladi. Normal qishlayotgan asalarilar, qishning birinchi yarmida tinch turadilar. Qishning ikkinchi yarmida asalari qurtchalari paydo bo'ladi va kunlar isiy boshlashi bilan asalarilarning vizillashi tobora kuchayadi. Asalari oilalari qishlovdan yaxshi chiqishi uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak:

- ☐ Kuzda yosh asalarilarni o'stirish;
- ☐ Varroatoz va akarapidoz kana va bitlariga qarshi kurashni o'z vaqtida to'g'ri qo'llash;
- ☐ Asalari shamolashini oldini olish uchun shakar sharbatiga antibiotiklar qo'shib berish;
- ☐ Ari oilasida sifatli oziqa qoldirish (tez kristallanadigan va pad asalarini qoldirish mumkin emas);
- ☐ Arixonalarni elvizak joylarga o'rnatilmasligi;
- ☐ Qishlov vaqtida asalarichi haftada bir marta asalaridan habar olib uya namlanishini kuzatib turishi;
- ☐ Ari uyasini o'z vaqtida qisqartirib, asalarilar qancha mumkatakli ramkalarni egallab tursa, shuncha ramkalar qoldirilishi;
- ☐ Har bir qoldirilgan mumkatakli ramkalarda bir yarim-ikki kg asal bo'lishi shart.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 oktyabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'risida" gi qarori.
2. B.A.Qaxramonov.A.I.Isamuhammedov.U.SH.Ballasov.S.Sh.Isamuhammedov. O.S.Turayev. "Asalarichilik" Toshkent - 2012yil
3. A.I.Isamuhamedov.X.K.Nikadambayev."Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Toshkent. Sharq nashriyoti, 2013 yil.
4. Z.Sidikov "Asalarichilikda intensiv usullar". Toshkent-2017 yil
5. A.Fotixov "Asalarichilikni o'rganamiz". Toshkent. Turon-Iqbol 2011 yil
6. B.A.Qahramonov va boshqalar "Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo'jaliklarda asalari oilalarini parvarishlash" O'quv qo'llanma – T-2009 yil.